2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan №5 (791), 2025-yil 8-mart facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

# AYOL BORKI, OLAM MUNAVVAR!

**Quvondiq SANAQULOV,**
**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori**

**Aziz opa-singillar!**
**Qadrli hamkasblar!**

Avvalo, sizlarni, sizlar orqali barcha ayollarimizni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, bahor va nafosat bayrami bilan chin qalbimdan qizg‘in tabriklayman.

Shuni mamnuniyat bilan ta’kidlash joizki, bu ayyom nafaqat xotin-qizlarimiz, balki biz uchun ham ulug‘ bayram bo‘lib, har yili bu bayramni munis onajonlarimiz, dilbar opa-singillarimizga guldasta-sovg‘alar hozirlab, orziqib kutamiz. Chunki, bu ayyom yurtimizga bahor, dillarga quvonchni boshlab keladi.

Zero, Ona – mo‘tabar, muqaddas zot. Ayol – mehr-muhabbat, go‘zallik timsoli. Shu bois, muhtaram ayollarimiz, mehribon xotin-qizlarimizni hamisha qadrlaymiz, sizlarning oldingizda burchli va qarzdormiz. Qadrli ayollarimiz, dilbar qizlarimizning jamiyatimiz taraqqiyotidagi hissalari har qancha tahsinu ofarinlarga munosibdir.

Keyingi yillarda muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya qilish, yashash va ish sharoitlarini yaxshilash, gender tenglikni ta’minlashga davlat siyosati darajasida e’tibor berilmoqda.

Bugun yurt farovonligi, taraqqiyotiga daxldor islohotlar samarasi, ijobiy o‘zgarishlarni ulkan korxonamizda mehnat qilayotgan hamkasblarimiz hayoti, serqirra faoliyati, qo‘lga kiritayotgan yutuqlari hamda shukronaligida yaqqol ko‘rib turibmiz.

Shu o‘rinda, sizlarga ko‘nglimdan o‘tayotgan bir fikrni aytishni joiz, deb bilaman. Biz, qanday ishni amalga oshirmaylik, uning zamirida sizlarning manfaatlaringiz, turmushingizga farovonlik, xonadoningizga quvonch, shodlik olib kirishdek ulug‘vor maqsadlar yotadi. Chunki, sizlarga zarur ish va yashash sharoitlarini yaratib berish kasaba uyushmasi Kengashi bilan birgalikdagi birinchi darajali vazifamizdir. O‘ylaymanki, sizlar rozi bo‘lsangiz, oilangiz, farzandlaringiz bizdan rozi bo‘ladi. Biz esa o‘z navbatida maqsadlarimizga erishgan bo‘lamiz.

Bugungi kunda kombinatimizda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan 6 ming 150 nafar xotin-qizlar orasida tashabbuskor rahbar ayollar, ishlab chiqarish ilg‘orlari borligi bizni mamnun etadi.

Bayramdan-bayramgacha bo‘lgan davrni sarhisob etadigan bo‘lsak, Navoiy mashinasozlik zavodi kran-mashinisti Sevinch Saidova “Kelajak bunyodkori” medali, “Zarmitan” koni laboranti Mactura Qudratova “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoniga sazovor bo‘lishdi. Kombinatimizda yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan xotin-qizlar soni 40 nafarga yetdi, o‘tgan yilgi saylovda 2 nafar xotin-qiz deputat etib saylandi.

Kasaba uyushma Kengashi bilan birgalikda kombinat ayollarining ijtimoiy himoyasini yaxshilash, ularni rag‘batlantirishga doimiy e’tibor qaratib kelayapmiz. 2024-yilda xotin-qizlarning 13 nafari 3-darajali “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishoni, 21 nafari “NKMK faxriysi” unvoni, 289 nafari Faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Mehnat insonni ulug‘laydi. Hayotda inson faqat mehnatidan qadr topadi. Hamkasb xotin-qizlarimiz Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimi, degan ulug‘ sharafga munosibdirlar. Zero, dunyoga tanilgan bunday sharafli korxonada ishlashning o‘zi katta baxt.

Qutlug‘ bayram arafasida Prezidentimizning 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to‘g‘risidagi Farmoni e’lon qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq “Navoiyuran” davlat korxonasining Uran ishlab chiqarish zavodi texnologik laboratoriyasi kimyoviy tahlil laboranti Irodabonu Ro‘ziyeva “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. Janubiy kon boshqarmasi Issiqlik, suv ta’minoti va oqova suvi sexi muhandisi Jamila Sodiqova esa “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoniga munosib topildi. Albatta, bunday yuksak e’tiroflar barchamiz uchun quvonchlidir.

Xotin-qizlarimiz salohiyatini ro‘yobga chiqarish va rag‘batlantirish maqsadida, kombinat, “Navoiyuran” DK va “NKMK jamg‘armasi” DM xotin-qizlari o‘rtasida tashkil etilgan “NKMK oltin ayoli” ko‘rik-tanlovida ishtirok etgan ayollarimiz nafaqat ishda, balki hayotda ham faol va tashabbuskor ekanliklarini ko‘rsatishmoqda. Tanlovning yaqinda bo‘lib o‘tgan final bosqichida g‘oliblar aniqlandi. Men bu tanlovni yanada ommalashtirish tarafdoriman.



Albatta, bunday ezgu ishlar haqida yana ko‘plab misollar keltirish mumkin. Biz, shu davrga qadar bu borada nima ishlar qilgan bo‘lsak, ularni katta yo‘ldagi ilk qadamlar, deb bilamiz. Ishontirib aytamizki, xotin-qizlarimizga bo‘lgan e’tibor va g‘amxo‘rlik 2025 – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da ham bardavom bo‘ladi.

Kombinatda keyingi yillarda maqtovga loyiq juda katta ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida Qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirish dasturi doirasida so‘nggi sakkiz yilda umumiy qiymati 3 milliard dollar bo‘lgan 24 ta yirik investitsion loyiha ishga tushirildi.

Yangi quvvatlarni foydalanishga topshirish hisobiga kombinatning qayta ishlash quvvati 2016-yilgi 60 million tonnadan 105 million tonnaga yetkazildi.

Investitsiya loyihalarini jadallashtirish evaziga 2026-yilgacha mo‘ljallangan dastur ijrosi 2024-yilda, muddatidan ikki yil oldin ortig‘i bilan bajarildi. Jamoamiz “O‘zbekiston - 2030” strategiyasidan kelib chiqib, yaqin kelajakda o‘z oldiga katta marralarni qo‘ygan. Jumladan, kombinatni 2030-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturi asosida oltin ishlab chiqarishni 37 foizga oshirishni niyat qilganmiz. Bu marralar bilan 2027 yilgacha oltin ishlab chiqarishni 100 tonnaga, 2030-yilgacha 125 tonnaga, kumushni esa 2028-yilgacha 202 tonnaga yetkazamiz. Albatta, bu dovonlarni ham birgalikda zabt etamiz va bunda sizlarning ham munosib hissangiz bo‘lishiga ishonaman.

**Aziz opa-singillar!**

Fursatdan foydalanib, sizlarni yana bir bor kirib kelayotgan Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman. Barchangizga sog‘lik-salomatlik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Baxtimizga hamisha sog‘-omon bo‘ling! Nafosat va go‘zallik, baxt va baxtiyorlik sizlarni hech qachon tark etmasin!

■ Xabarlar. Yangiliklar.

# “NKMK OLTIN AYOLI”

## ko‘rik-tanlovining final bosqichi nafosat malikalarining murosasiz bellashuvlariga boy bo‘ldi

**Mamlakatimizda xotin-qizlarga bo‘lgan e’tibor, g‘amxo‘rlik tufayli ularning hayot darajasi va sifati tubdan o‘zgarib, ertangi kunga ishonchi mustahkamlanayotgani ayni haqiqatdir. Beshinchi yildirki, kombinat rahbariyati va kasaba uyushmalari Kengashi tashabbusi bilan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni oldidan “NKMK oltin ayoli“ ko‘rik-tanlovi o‘tkazish yaxshi an’anaga aylangan. Bugungi kunda kombinat tizimida 6150 nafar, “Navoiyuran” davlat korxonasida 892 nafar, “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasida 5669 nafar xotin-qiz xizmat qilmoqda. Ulkan kranlar, kon texnikalari, zamonaviy texnologiyalarni boshqarayotgan hamkasb ayollarning jasorati va mehnati haqiqiy ibrat namunasi bo‘lib kelmoqda.**



Joriy yilning 28-fevral kuni Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati“ aksiyadorlik jamiyati, “NKMK jamg‘armasi“ davlat muassasasi, “Navoiyuran“ davlat korxonasida ishlaydigan xotin-qizlar o‘rtasida “NKMK oltin ayoli“ ko‘rik-tanlovining joriy yilgi final bosqichi o‘tkazildi. Ko‘rik-tanlovning saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan 14 nafar ishtirokchi to‘rtta shart bo‘yicha bellashdilar.

Yakuniy natijalariga ko‘ra, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Navoiy mashinasozlik zavodi quymachilik sexi pult boshqaruvchisi Ruhangiz Fayzullayeva, “NKMK jamg‘armasi“ DM “Zarafshon” hududiy boshqarmasi Tibbiy-sanitariya qismi shifokori Nargiza Salomova, “Navoiyuran” DK “Zafarobod” kon boshqarmasi Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi muhandis-texnologi Kamila Kosbarmakovalar g‘oliblikni qo‘lga kiritdilar. Ko‘rik-tanlov g‘oliblari qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

**A.ZARIPOV.**








# QONUNCHILIK PALATASI DEPUTATLARI

## kombinat faoliyati bilan tanishdilar

**Yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi raisi Bobur Bekmurodov, qo‘mita raisi o‘rinbosari Farhod Zayniev, qo‘mita a’zolari Nuriddin Sultonov, Galiya Rayxanova, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Baxitbay Aldamuratov, qo‘mita a’zolari Qizilgul Qosimova, Odiljon Mamadalievlardan iborat bir guruh deputatlar tomonidan Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyatining ijobiy tajribasi o‘rganildi.**

Davomi 3-betda

# G‘OLIBLAR TAQDIRLANDI

**Joriy yilning 1-mart kuni “NKMK” AJ boshqarmasida Navoiy kon-metallurgiya kombinati yosh ishchi-xodimlari o‘rtasida 2024-yilda o‘tkazilgan “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovi g‘oliblarini taqdirlash tadbiri bo‘lib o‘tdi.**

Tadbirda “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov ishtirok etib, tanlov g‘oliblarini tabrikladi va kombinatda ishlab chiqarish jarayoniga ilmiy ishlanmalar, innovatsion g‘oya va ratsionalizatorlik takliflarini joriy etishga katta e’tibor berilayotganini alohida ta’kidladi.

– So‘nggi yillarda katta qobiliyat va ilmiy salohiyatga ega korxona mutaxassislari tomonidan yaratilgan 37 ta ixtiroga respublika va xorijiy davlatlarning patentlari olindi. 2018-2024-yillarda 1 253 ta ratsionalizatorlik taklifidan kombinat 556,2 mlrd. so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishdi. Tanlov shartlariga ko‘ra, ularning mualliflari 6,9 mlrd. so‘m mablag‘ bilan rag‘batlantirildi. Joriy yilda “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovi komissiyasiga 271 nafar ishtirokchidan 276 ta ratsionalizatorlik taklifi kelib tushdi. Komissiya tomonidan takliflar o‘rganilib, 9 ta yo‘nalish bo‘yicha g‘oliblar aniqlandi, – deydi tanlov komissiyasi kotibi Nargiza Kamolova.

Davomi 3-betda

■ **8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni**

# Ayol qalbi nozik xilqat



**Kombinat tizimida olti ming nafardan ziyod xotin-qiz ishlaydi. Xarakteri, vazifasi turli va ular jamoada o‘z o‘rniga ega. Shunday jonkuyar hamkasblarimizdan biri - Mashhura Rahimova haqida ko‘p e’tiroflarni aytish mumkin. U baxtli oila bekasi bo‘lish bilan birga, iqtidor egasi hamdir. Kombinatimizning ko‘plab bayram tadbirlariga sidqidildan xizmat qilib kelmoqda.**

Bugungi kunda uni jamoatchilik ma’naviyat targ‘ibotchisi, ijodkor, suxandon sifatida yaxshi taniydi. Darhaqiqat, inson kim, qanday bo‘lishi o‘ziga, intilishiga bog‘liq. Mashhura opa kelajak taqdirini o‘z qo‘li, noyob iqtidori bilan yaratgan zamondoshimiz. Viloyat televideniyesi va radiosi, “Fazo” televideniyesida ishlagan qariyb yigirma besh yillik faoliyati va intilishi uni efir va katta sahnalar sari yetakladi. Bu qobiliyati bilan hurmat-e’tibor topib, elga tanildi, ma’naviyatimiz fidoyilaridan biriga aylandi.

Asli navbahorlik M.Rahimova go‘zal maskanda kamolga yetdi. Bilim va intilishi bilan Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi bo‘lishga erishdi. Murabbiylaridan saboq olib, ushbu oliygohni o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha muvaffaqiyatli tamomladi. Bolaligidan tele-radio sohasiga qiziqishi, el tanigan suxandonlarga havasi boshqacha edi. Shu sababli, yoshlik orzulari uni jurnalistika sohasiga yetakladi.

Suxandonlik, bu - hammaning ham qo‘lidan kelavermaydigan qobiliyatdir. Buning uchun, insonda so‘z boyligi yetarli, talaffuzi ravon bo‘lishi kerak. Chunki, tomoshabin va tinglovchilar e’tiborida bo‘ladigan jonli efir bo‘ladimi, betakror so‘z san’ati talab etiladigan sahna bo‘ladimi, har birining o‘ziga xos tartib-qoidasi, talabi bor. O‘zbek va rus tillarida ravon so‘zlay oladigan Mashhura Rahimovada tug‘ma iqtidor borligi unining sohada o‘z yo‘lini topishida muhim omil bo‘ldi.

O‘zining e’tiroficha, maqsadiga erishishida rahmatli otasi Abduhamid akaning, ayni paytda farzandu nevaralari ardog‘ida keksalik gashtini surayotgan suyukli onajonisi Hidoyat ayaning qo‘llab-quvvatlashi, opasi Nilufar, ukalari – Hayotjon va Bayotjonlarning daldasi beqiyos bo‘lib, ular doim yonida turib, orzular sari ruhlantirib turgan.

Shu bilan birga, ijod yo‘lida “Do‘stlik” ordeni sohibi, ko‘p yillar viloyat teleradiokompaniyasida bosh muhandis lavozimida mehnat qilgan Jo‘raqul Eshov, taniqli suxandon Norjon Nosirova, turli davrlarda televideniye rahbarlari bo‘lib ishlagan Abduvali Nosirov (rahmatli), Yorqul Umarov (rahmatli), Ra’no Hakimova, Temur Eshboyev, Hamidulla Qarchig‘ayev, G‘ulom Sultonovlar, birga ishlagan Malika To‘xtayeva (rahmatli), Xolbibi Safarova, Rahima Qaymoqovalarni o‘ziga ustoz deb biladi. Ular Mashhura opaga kasb sirlarini o‘rgatib, doim qo‘llab-quvvatlagan. Eng muhimi, viloyat teleradiokompaniyasi va “Fazo” televideniyesi uning uchun haqiqiy mahorat maktabi bo‘ldi.

Taqdir uni Furqat Davlatovga ro‘baro‘ qildi, ular turmush qurishdi. Bugungi kunga qadar baxtli hayot kechirib, farzandlari Rayhona va Jonibeklarni dunyoga keltirib, voyaga yetkazishdi. Qizi yurtimizdagi eng nufuzli oliygohlaridan bo‘lgan Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qib, sharafli kasb egasi bo‘ldi. O‘g‘li esa O‘zbekiston Milliy universiteti menejment fakulteti talabasi. Bu juftlik bugun Amiraoy va Yusufjonlarning mehribon buva va buvijonisi. Qo‘ni-qo‘shnilar bu oilani mahalladagi eng namunali, ahil oila sifatida bilishadi va havas bilan qaraydi. Zero, nufuzli tadbirlar, katta davralar, xalqimizning to‘y-tomoshalarida xizmat qilish oilaning qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq. Shukrki, bu borada turmush o‘rtog‘i, tadbirkor Furqat akaga o‘xshash, tushunadigan inson bo‘lmasa kerak. Mana shu jihatlar oila, degan muqaddas qo‘rg‘onning poydevori mustahkam bo‘lishini ta’minlamoqda.

Mana olti yildirki, Mashhura opa Navoiy mashinasozlik zavodining Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va ma’daniy-ma’rifiy majmuasi boshlig‘ining madaniy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari vazifasida ishlab kelmoqda. Uning yangi jamoa safiga kirib kelishi bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada jonlantirib, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, badiiy kechalar ko‘lamini kengaytirib yubordi. Qisqa davrda u kombinat ma’naviyatchilari orasida eng faol, izlanuvchan va intiluvchan xodimga, yutuqlari bilan jamoaning tinib-tinchimas, tashkilotchi va tashabbuskor a’zosiga aylandi. Bugun kimdan so‘ramang, Mashhura Rahimova haqida barcha birdek iliq gaplarni, maqtovlarni aytadi.

Umr solnomasini zarhal harflar bilan bezab yashash, qalbi chehrasidek beg‘ubor bo‘lish aynan qahramonimizga to‘la taalluqli hamda Mashhura Rahimova havas qilsa arzigulik baxtga yetishgan ayol desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayol qalbi! Nozik xilqat. Uni faqat ardoqlab, e’zozlab yashash - eng oliy baxtu saodatdir! Zero, shoir ta’kidlaganidek:

*Bashar paydo bo‘lgan dastlabki kundan,*
*To hozirga qadar bo‘lgan e’tiqod –*
*Qaysi u?*
*Ey shoir, xabar ber shundan,*
*Qaysi e’tiqod u, qolar barhayot?*
*- Ayol mehri!*

*Metin irodali, zabardast, mag‘rur,*
*Pahlavon yigitlar bosh egar nechun?*
*Yoydayin egilar iroda, g‘urur*
*U qanday qudratdir, doimo ustun?*
*- Ayol mehri!*

**Dildora KARIMOVA,**
**jurnalist.**

**Yurtimizda xotin-qizlar ko‘proq ijtimoiy sohalarda faoliyat yuritishiga o‘rganib qolganmiz. Ammo bugunga kelib ularni asosan erkaklar ishlaydigan sohalarda ham uchratmoqdamiz. Kundalik hayotda traktorchi, taksi haydovchisi, duradgor, hattoki cho‘pon bo‘lib ishlayotgan opa-singillarimiz talaygina.**

# Texnikaga mehr qo‘yib



Ishlab chiqarishda, zavodlarda balandlikdan qo‘rqmaydigan, texnika yordamida og‘ir yuklarni ko‘tarish va ortish kabi ishlar bilan shug‘ullanadigan kranchi xotin-qizlar soni ortib bormoqda. “Qizilqum” kon boshqarmasi 1-gidrometallurgiya zavodi kon va texnologik uskunalarni ta’mirlash sexi kran mashinisti Oliya Ibragimova shulardan biridir. U zavodda yagona ayol kran mashinisti. Chorpoyalik va ko‘prik kranlarni mohirona boshqarayotgan Oliya o‘z ishidan mamnun bo‘lib, quyidagilarni so‘zlab berdi:

– Faoliyatimni Markaziy kon boshqarmasida farroshlikdan boshlagandim. Kranda ishlagan ayollarni ko‘rib, ularga havas qilardim. Uyimdagilar avvaliga “Bu erkakning ishi-ku, boshqa ish top”, deya e’tiroz bildirishgan, ammo mendagi qiziqishni ko‘rib, keyinchalik ruxsat berishgan. Keyin ham ishlab, ham O‘quv markazida kran mashinistligiga o‘qidim. Z.Shukurova, N.Turdiyev, D.Pardayeva, M.Ortiqov kabi yaxshi ustozlar qo‘lida tarbiya topdim, kasb o‘rgandim. Tajribam orta borib, 20 tonnadan boshlab, 160 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega kranlarda ishladim. Bizning kasbimizda bu erkakning, bu ayolning ishi deya tanlamaslik kerak. Qiziqish bo‘lsa, odam o‘rganishga harakat qilarkan. Mana, o‘zim qiziqdim, o‘rgandim, hali o‘rganishda davom etyapman. O‘rganganlarimni o‘rgatib, o‘zim ham ustoz bo‘libman...

Kun davomida turli og‘irlikdagi yuklarni yuklaymiz va tushiramiz, ulkan hajmdagi nostandart metal konstruksiyalarni ko‘tarish va yig‘ish, katta temir listlarni kesish jarayonlari, “MAN” yuk mashinalari, ekskavatorlar kovshlari, tegirmonlar va nasoslarning ta’mirlanishida qatnashamiz. Tegirmonlarni kunora 5,5 tonnalik sharlardan iborat konteynerlar bilan ta’minlaymiz. Har bir kasbning o‘ziga yarasha mashaqqati va mas’uliyati bo‘ladi. Bizning ishimiz ham bundan mustasno emas, qishin-yozin ochiq havoda bo‘lganimiz uchun, tabiatning turli injiqliklariga duch kelamiz, bu esa ancha noqulayliklar tug‘diradi. Kran mashinistidan hamisha e’tibor va aniqlik talab etiladi. Yukni ko‘targan payt ancha ehtiyotkor bo‘lish kerak. Shukurki, xavfsizlik talablariga doimo rioya qilganimiz uchun, haligacha biror baxtsiz hodisa ro‘y bergani yo‘q.

13 yildan beri kran mashinisti bo‘lib ishlayman, qo‘rquvlar, hayajonlar bosilgan. Boshqa zavodlardan ko‘p takliflar bo‘lgan. Lekin ishxonamga mehr berganim uchun boshqa joyga ishga ketgim yo‘q...

Oliya Ibragimovaning xizmati zavod rahbariyati tomonidan munosib baholanib, bir necha marotaba Faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Temir mashinalarni mohirlik bilan boshqarayotgan kranchi ayollarimizni ko‘rib, amin bo‘ldikki, qiziqish va intilish bo‘lsa, har qanday kasbda ayol ham erkak ham, birday ishlasa bo‘lar ekan.

**A.AXMEDOVA**



# Ayollarga bayram hazili

*Bo‘l-bo‘l ayol bo‘l ekan, izzat-ikrom mo‘l ekan,*
*Qosh-u, ko‘ziga boqqan, Alp erkak ham go‘l ekan.*

*Izmidan yurmaganning, hayoti sinar ekan,*
*Tinch-totuv yashay degan, ne desa ko‘nar ekan.*

*Qancha kerilgan bilan, ayolga bosh egasan,*
*Chizgan chiziqlaridan, bir qadam chiqolmaysan.*

*Kerak bo‘lsa kaftida, har kuyga o‘ynatadi,*
*Ishq olovida toblab, yuraging tig‘latadi.*

*Ne-ne jahongirlarni, ayol zoti mahv etgan,*
*Jahonni titratsa ham, onasin poyin o‘pgan.*

*Bo‘l-bo‘l erkak bo‘l ekan, ayolni e’zoz etgan,*
*Ayol zotin ardoqlab, kaftida olib o‘tgan.*

*Buning bari ayolga, chin sadoqat dastidan,*
*Chunki ayol yaralgan, erkak qovurg‘asidan.*

*Ranjimangiz erkaklar, ular sizni sevadi,*
*Er berguncha ayollar, jonlarini beradi!*

*Bugun bayram ayollar, sizlarni tabriklaymiz!*
*Chin ahdimiz sizlarni, o‘lguncha ardoqlaymiz!*

**Abdulhamid QURBONOV,**
**“Zarmitan” koni yetakchi muhandisi.**

# Zafarobodning Gulbahori

**Qutlug‘ bayram munosabati bilan faoliyati, erishayotgan yutuqlari yoshlarga ibrat bo‘lgulik ayol – “Navoiyuran” davlat korxonasi “Zafarobod” kon boshqarmasi kadrlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari Gulbahor Ro‘zieva haqida hikoya qilmoqchiman.**

U o‘ttiz uch yildan buyon kon boshqarmasida turli lavozimlarda, so‘nggi to‘qqiz yilda kadrlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari bo‘lib ishlab kelmoqda. G.Ro‘ziyevaning egallab turgan lavozimi mas’uliyatli ekanligini ta’kidlashga hojat bo‘lmasa kerak. Eng muhimi, u buni chuqur anglaydi va faoliyatida halollik, adolat, axloqiy fazilatlarga tayangan holda ish tutadi. Gulbahor opa o‘zini yuqori malakali mutaxassis sifatida namoyon etayotganligi, zimmasidagi vazifaga vijdonan yondashayotganligi bois ulkan jamoada, Zafarobod qo‘rg‘oni aholisi o‘rtasida hurmat-e’tibor qozonmoqda. Kadrlar bo‘limida ishlash, katta korxona bo‘linmalari uchun ishchi va mutaxassislarni tanlash, ulardan samarali foydalanish, kadrlar harakati va hisobotini tashkil etish, turli korxona va tashkilotlar bilan rasmiy yozishmalar olib borish, kon boshqarmasida bularning barchasi Mehnat qonunchiligi, Jamoa shartnomasi talablariga mos bo‘lishini ta’minlash oson ish emas. Gulbahor Ro‘ziyeva ana shu vazifalarni a’lo darajada bajaradi, sohaga oid tajriba va bilimini kasbdoshlariga o‘rgatadi. Uning qator shogirdlari hozir kon boshqarmasi kelajagi yo‘lida sidqidildan xizmat qilishayapti.

Gulbahor Mamarasulovna ko‘p yillik mehnatilari evaziga korxona rahbariyatining Faxriy yorlig‘i, Tashakkurnomasi, 2018-yilda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati faxriysi” unvoni bilan taqdirlangan.

“Men oddiy oilada voyaga yetganman. Otam zooveterinariya vrachi, juda mehribon va ayni paytda talabchan inson edilar. U kishi biz, farzandlariga bolaligimizdanoq kitobga mehr uyg‘otganlar. Onam esa mehribon, doimo uy ishlari bilan band, farzandlari uchun jonu jahonini berishga tayyor, bir so‘z bilan aytganda, oilam, bola-chaqam deguvchi oddiy sharq ayolining timsoli edilar. Otam bizning adolatli, halol inson bo‘lishimizni xohlardilar va shu ruhda tarbiyaladilar”, – deydi Gulbahor opa baxtli bolaligini xotirlab.

Darvoqe, G.Ro‘ziyeva Rossiya Federatsiyasining Kursk shahrida institutni imtiyozli diplom bilan tugatgach, ustozlari unga o‘zi tahsil olgan oliygohda ishlashga qolishini taklif qilishadi. Ammo yurt, jonu jigarlar sog‘inchi uni Navoiyga olib keldi. Gulbahor opa hozirda kon boshqarmasi 6-avtomobil bazasi haydovchisi bo‘lib ishlayotgan Shukurilla Abdurahmonov bilan taqdirini bog‘ladi. Baxtiyor oilaning uch nafar farzandi, uch nafar suyukli nevaralari bor. Qizlari Oksana O‘zbekiston Milliy universitetining iqtisod yo‘nalishini tugatgan, ayni paytda farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul. O‘g‘illari Sobirjon va Sodiqjonlar ham oliy ma’lumot egalari, hayotda o‘z o‘rinlarini topishgan. Gulbahor Ro‘ziyeva doimo farzandlarini padaribuzrukvori Mamarasul ota istaganidek tarbiyalab, voyaga yetkazayotganligidan mamnun.



**Mohigul ESONOVA,**
**“Navoiyuran” DK IHQO katta inspektori.**

# Ayolni sev

*Ayolni sev,*
*ayolga yolbor,*
*Ming bir kecha ertaklaring ayt,*
*Alpomishlar tug‘ib beradi.*

*Ayolni sev,*
*ostonasin o‘p,*
*Qasr qurma, ko‘nglini so‘ra,*
*Balo kelsa, turib beradi.*

*Ayolni sev,*
*o‘laman degil,*
*Ishq yaratgan Parvardigordan,*
*Senga umr so‘rab beradi.*

**Farida AFRO‘Z,**
**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.**



# Mehr bog‘ining malikalari

**Ha, ayollarga shunday tashbeh berish o‘rinlidir. Markaziy kon boshqarmasida faoliyat yuritayotgan ikki ming nafardan ortiq xotin-qizlar o‘z zimmalaridagi vazifalarni, onalik burchlarini mas’uliyat bilan bajarishmoqda. Qahramonlarimiz kombinatdek korxonada faoliyat yuritish baxtidan quvonib, iqbolidan suyunib gapirishdi. Ularning so‘zlariga quloq tutsangiz, hayotidan mamnun ekanligiga, guvoh bo‘lasiz.**

**Nigora ABDIYEVA,**
**Neft mahsulotlari markaziy bazasining mehnatni tashkil etish va me’yorlash bo‘yicha muhandisi.**

Insonlarning hayotdan o‘z maqsadi va orzu-umidlari bor. Ularga erishish yo‘llarini esa har kim o‘z tushunchasi doirasida tasavvur qiladi va intiladi. Nigora Tolibovna baxtu iqbolning kaliti ilmu ma’rifatda ekanligini erta anglab yetdi. Navoiy davlat pedagogika institutining matematika-informatika yo‘nalishini muvaffaqiyatli tugatgach, 2018 yilda Markaziy kon boshqarmasi neft mahsulotlari markaziy bazasiga ishga taklif etildi.



– Kasbim qiziqarli va aniq hisob-kitobni talab qiladi. Baza shtat jadvalini tuzish, mehnatni tashkil etish, ishlab chiqarishni boshqarish, ish haqi shakllari va tizimlarini takomillashtirish, baza xodimlarini moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha ishlar majmuasini bajarish, ish haqi stavkalarini qo‘llashning to‘g‘riligini ta’minlash, ish haqi fondiga kiritilgan ish haqi, qo‘shimcha haqlar, nafaqalar belgilash, mehnatga haq to‘lash va xodimlar toifalarini belgilash mening vazifamga kiradi. Ishimga har doim mas’uliyat bilan yondashib amaldagi yo‘riqnoma va belgilab qo‘yilgan me’yorlar doirasida bajarishga harakat qilaman, – deydi biz bilan suhbatda N.Abdiyeva.

Nilufar oilada ham, ishxonada ham tartib-intizomli bo‘lishni o‘zining asosiy burchi, deb hisoblaydi. 2 nafar farzandini namunali tarbiyalab, voyaga yetkazayotgani, to‘ng‘ich o‘g‘li Shoxrux yurtimizning nufuzli oliygohlaridan biri hisoblangan “Central Asian University” talabasi ekanligidan faxrlanadi. Kichigi Shaxriyorning ham orzulari ulkan. Kamtarin va samimiy fazilatlari ko‘plar uchun ibrat bo‘lgulik Nigora hayoti mazmunini farzandlarining kamolida ko‘radi.

**Nilufar RO‘ZIYEVA,**
**kon boshqarmasi konstruktorlik bo‘limi muhandis-konstruktori.**

Qaysi kasb yoki hunar bo‘lmasin, unga mas’uliyat bilan yondashish muhim sanaladi. Nilufar Ro‘ziyeva ham Toshkent davlat texnika universitetining asbobsozlik yo‘nalishini tugatgandan so‘ng, boshqarmada topografik-geodeziya va marksheyderlik ishlari bo‘yicha o‘lchovchi, geolog bo‘limi muhandisi vazifalarida faoliyat yuritgan vaqtlarida o‘z ustida ishlab, bilim va ko‘nikmasini oshirib bordi. Hozirda boshqarma bo‘limlari va zavodlarning konstruktorlik hujjatlarini, raqobatdosh mahsulotlar loyihalanishida buyumlarning eskiz, texnik loyihalarini ishlab chiqish, konstruksiyalarning texnik topshiriq va standartlarga, mehnat muhofazasi me’yorlariga, tejamkor texnologiya talablariga muvofiqligini ta’minlashga erishib kelmoqda.



Shunday ayollarimiz borki, ularning hayot yo‘li, ishi, atrofidagilarga munosabati, fazilatlari, o‘ziga xos ichki dunyosi bilan biroz tanishgandan keyin haqiqiy fidoyilik namunasini ko‘rgandek bo‘lamiz. Nilufar ham farzandlari uchun chiroyli, sabrli bo‘lib yashashga harakat qilmoqda. O‘g‘li Ahmadjon bilim va salohiyati bilan Navoiy viloyati Prezident maktabiga qabul qilinganidan so‘ng o‘g‘lining kelajagi yanada porloq bo‘lishiga umid bog‘layapti.

– Prezidentimiz tomonidan yoshlar hayotiga oid farmon yoki qaror imzolansa, juda xursand bo‘laman. Chunki, ushbu huquqiy hujjatlar o‘g‘il-qizlarimizning taqdirini belgilaydi, imkoniyatlarini oshirib, vatanparvarlik ruhida kamol topishlariga zamin yaratadi, ona yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shishga ruhlantiradi, – deydi Nilufar Ro‘ziyeva suyunib.

Ilmli va salohiyatli insonlarning jamiyatda munosib o‘rin topishlarida onalarning beqiyos xizmati bo‘ladi. Nilufar ham qizi Rohilabonu va o‘g‘li Ahmadning bilimli, yuksak ma’naviyatli, tashabbuskor, yangicha fikrlaydigan, dunyoqarashi keng insonlar bo‘lib kamol topishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratmoqda.

**Nafosat ZIYOYEVA.**

■ Xabarlar. Yangiliklar.

# QONUNCHILIK PALATASI DEPUTATLARI

## kombinat faoliyati bilan tanishdilar

◀ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Kombinat boshqarmasida «NKMK» AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov va Qonunchilik palatasi deputatlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda kombinat faoliyatining keyingi yillardagi rivojlanishi, ma’dan qazib olish, qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish, mahalliylashtirish, raqamlashtirish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma’lumot berildi.

– Qonunchilik palatasi qarori bilan ishlab chiqilgan “Harakatlar dasturi”da Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyatining ijobiy tajribasini o‘rganish belgilangan. Kombinat mamlakatimiz iqtisodiyotida juda katta o‘ringa ega. Keyingi yillarda korxonada yirik investitsion loyihalar amalga oshirilganidan xabardormiz, - deydi Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi raisi B.Bekmurodov.

Qonunchilik palatasi deputatlari Navoiy mashinasozlik zavodida bo‘lib, korxonaning ish jarayonlari va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan amaliy ishlar bilan yaqindan tanishdilar. 27-fevral kuni deputatlar dunyoga mashhur “Muruntov” koni faoliyati, jumladan, ishlab chiqarish jarayonlari, ma’dan qazish va tashish ishlari, zamonaviy kon texnikalari bilan tanishib, mutaxassislar bilan muloqot qilishdi.

– “Murutov” oltin koni haqida ko‘p eshitganman, lekin birinchi kelishim. Haqiqatda, yuqori ishlab chiqarish sur’ati va zaxirasiga ega, xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallab kelayotgan yirik kon ekan, - deydi deputat Qizilgul Qosimova. – Konchilar bilan suhbatlashib, mashaqqatli va qizg‘in ish jarayoni, sharafli kasb egalarining o‘z ishiga bo‘lgan munosabatiga guvoh bo‘ldim. Ayniqsa, kombinatda bu sohada o‘rganadigan ijobiy jihatlar ko‘p ekanligiga amin bo‘ldim.

Qonunchilik palatasi deputatlari 2-gidrometallurgiya zavodi Ishlab chiqarishning raqamlashtirilgan yagona boshqaruv markazi misolida kombinatda raqamlashtirish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish yo‘nalishidagi ishlar bilan yaqindan tanishdilar.

– Korxona bugun raqamlashtirish borasida ancha ilgarilab ketganiga guvoh bo‘ldik. Ishlab chiqarish kombinat yosh dasturchilari tomonidan yaratilgan loyihalar asosida to‘liq raqamlashtirilgani eng katta yutuqlardan biridir. Markaziy kon boshqarmasi ishlab chiqarish korxonalari, texnika va texnologiyalarini muntazam kuzatib borish imkoniyati yaratilgani va ish jarayonlari yangi tizim orqali boshqarilayotgani buning yaqqol isbotidir, – deydi Qonunchilik palatasi deputati, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi a’zosi Odiljon Mamadaliyev.

Deputatlar kunning ikkinchi yarimida 7-gidrometallurgiya zavodi faoliyati, ishlab chiqarish, jumladan, texnogen chiqindilarni qayta ishlash, zamonaviy texnologiyalarni boshqarish jarayonlari bilan tanishdilar.

Uchinchi kuni deputatlar Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bo‘ldilar. Ular universitetning innovatsion faoliyati hamda ilmiy-tadqiqot laboratoriyalaridagi jarayonlarga e’tibor qaratdilar. Deputatlarga ushbu sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijasi, ta’limning sifatini oshirish borasidagi sa’y-harakatlar va zamonaviy mehnat bozoriga mos keladigan muhandis kadrlarni tayyorlash borasidagi amaliy ishlari haqida atroflicha axborot berildi.

Shuningdek, deputatlar “Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarixi” muzeyida bo‘lib, kombinat tarixi, keyingi yillarda ishga tushirilgan yangi korxonalar hamda Qizilqum zaminining qadimiy tarixi va buguni haqida so‘zlaydigan eksponatlar bilan tanishdilar.

**Azamat ZARIPOV.**




# G‘OLIBLAR TAQDIRLANDI

◀ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

An’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan ushbu tanlovda “Geologiya” yo‘nalishida Markaziy kon boshqarmasi “Muruntov” koni Gamma-aktivlashtirilgan tahlil markaziy laboratoriyasi boshlig‘i Alisher Qo‘ldoshev, “Konchilik ishi” yo‘nalishida Markaziy kon boshqarmasi “Muruntov” koni “Bessopantov-Chuqurquduq” karyeri bosh muhandisi Shodlikjon Xudoyberdiyev, “Oltin ajratib olish texnologiyasi” yo‘nalishi bo‘yicha Markaziy kon boshqarmasi 7-gidrometallurgiya zavodi bosh muhandisining ishlab chiqarish bo‘yicha o‘rinbosari Olimjon Ahatov va “Oltinni uyumda eritmaga o‘tkazish sexi” koni bosh muhandisi Sardor Polvonov, “Mexanika” yo‘nalishi bo‘yicha “Qizilqum” kon boshqarmasi konstruktorlik byurosi muhandis-konstruktori San’atjon Ne’matov, “Energetika”, “Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish” va “Xavfsizlik texnikasi” yo‘nalishlari bo‘yicha Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi Avtomatlashtirish bo‘yicha nostandart vositalarni tayyorlash laboratoriyasi boshlig‘i Sardor Norboyev, “Transport” yo‘nalishi bo‘yicha “Qizilqum” kon boshqarmasi “Qoraqo‘ton” koni ustasi Mirolim Urchinov, “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar” yo‘nalishi bo‘yicha AKTB “Qizilqum” axborot texnologiyalar bo‘limi guruh muhandis-tizim ma’muri Sayfullaxon Hojiyevlar g‘olibikka munosib topildi.

– Kombinatimizda dolzarb ahamiyatga ega ratsionalizatorlik takliflari, texnik yechimlar kutilganidan ziyoda samara bermoqda. Ushbu yo‘nalishda biz kabi yosh mutaxassislarga izlanishlar olib borish, ilm-fan yutuqlari asosida noyob texnik yechimlar yaratishimiz uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan, – deydi tanlov g‘olibi Alisher Qo‘ldoshev. – Biz bundan oqilona foydalanlangan holda, noyob takliflar yaratib, resurslarni tejash, mablag‘larni iqtisod qilish orqali foyda keltirishga astoydil harakat qilayapmiz. Kombinatimiz ma’muriyati ham o‘z navbatida biz ratsionalizatorlarni qo‘llab-quvvatlab, ularning mehnatini rag‘batlantirib kelmoqda. Men ham bir necha yildan buyon bu tanlovda ishtirok etib, g‘olib va sovrindorlar safidan o‘rin egallab kelayapman. Mening “Tezlatgichlarning yuqori vakuumli magnit nasoslarini yuqori voltli ulagichlarining himoya izolatsion xususiyatlarining sifatini yaxshilash va ularni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish” mavzusidagi ratsionalizatorlik taklifim 1-o‘ringa loyiq topildi. Laboratoriyamizda noyob texnologik asbob-uskunalar yordamida gamma-aktivlashgan nurlar orqali ma’danlardagi oltin miqdori aniqlanadi. Bu taklifim bugun korxona faoliyatiga tatbiq etilib, iqtisodiy foyda berayotganidan xursandman. Bu kabi rag‘bat va e’tirof bizlarni yanada izlanishga, o‘z ustimizda ko‘proq ishlashga undaydi.

Tanlov g‘olib va sovrindorlari diplom va pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.

**Dildora KARIMOVA.**

# NAZM VA NAVO GULSHANI

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati ijtimoiy mas’uliyatni zimmasiga olib, ishchi-xodimlar va ularning oila a’zolari ishdan bo‘sh vaqtda madaniy hordiq chiqarishlari uchun kombinat ma’muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi hamkorligida turli ma’naviy-ma’rifiy, madaniy tadbirlar tashkil etilmoqda.**



Bahor faslining ilk kunlarida kombinat ishchi-xodimlari istiqomat qilib kelayotgan shaharlarda O‘zbek milliy maqom san’ati markazi Navoiy viloyati hududiy bo‘limining “Nazm va navo gulshani” nomli konsert dasturlari namoyish etildi.

Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida, Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy”, Uchquduq shahridagi “Uchquduq” madaniyat uylarida, Qo‘shrabot tumanidagi Zarkent qo‘rg‘onida kombinat ma’muriyati va NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan ishchi-xodimlar va ularning oila a’zolari uchun tashkil etilgan madaniy tadbirlarda ishtirokchilar o‘zbek xalqining qadim tarixi, ma’naviy dunyosi, badiiy falsafasi ruhi mujassam maqom musiqasining qudratini his etdilar.

– Shunday yirik korxonada maqom musiqasi tinglovchilari ko‘pligi bizni hayratga soldi,– deydi O‘zbek milliy maqom san’ati markazi Navoiy viloyat hududiy bo‘limi direktori Bobomurod Xolov. – Maqom murakkab va “xos”lar san’atidir. Keyingi yillarda yurtimizda maqom san’atini keng joriy qilish maqsadida yangicha yo‘nalishlar va usullarda ish olib borilyapti. Davlatimiz rahbarining maqom san’atini takomillashtirishga qaratayotgani e’tibori bizga katta kuch va madad bo‘layotir.

Tadbirlarda maqom san’atining nodir namunalari ijro etildi, milliy cholg‘uchilar tomonidan musiqiy kompozitsiyalar taqdim etildi. Jonli ijrodagi har bir asar davomli olqishlar bilan qarshi olindiki, bu, maqom san’ati konchilar qalbiga kirib borayotgani, ularga ma’naviy-ruhiy ozuqa berayotganidan dalolatdir.

**“NKMK” AJ Matbuot xizmati.**

**Kombinat O‘quv markazida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va Seysmoprognostik monitoring Respublika markazi mutaxassislari ishtirokida sohaga doir qonunchilik targ‘iboti bo‘yicha davra suhbati bo‘lib o‘tdi.**

# HAMKORLIK YANADA KENGAYADI

Seysmoprognostik monitoring Respublika markazi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Jaloliddin Karimov “Seysmik xavf: kelib chiqish sabablari va ko‘rilayotgan choralar” mavzusida ko‘rgazmali taqdimot qildi.

– Zilzila bilan bog‘liq favqulodda vaziyat davrida aholi va hududlarni seysmik xavfdan himoya qilish, tabiiy va texnogen xavfli hududlarda seysmik xavfsizlik bo‘yicha monitoring ishlarini olib borish, zilzilalar to‘g‘risida aholini tezkor xabardor qilish borasida respublikamizda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ushbu dolzarb vazifa mas’ulligi bizning markaz jamoasi zimmasiga yuklangan, – dedi ma’ruzachi. – Bu borada muhim strategik inshootlariga ega kombinat bilan ham mustahkam aloqalar yo‘lga qo‘yilgan va hamkorlik ijobiy natijasini bermoqda. Jumladan, “Muruntov” koni va yaqin atrofdagi hududlarga o‘rnatilgan 5 ta zilzilalarni qayd etuvchi stansiyalar orqali seysmik holatlarni doimiy monitoring qilib boramiz.

Bugungi kunda respublikamiz hududida 100 ga yaqin kuchli zilzilalarni qayd etuvchi stansiyalar faoliyat olib bormoqda. 2026-yilgacha ular sonini 200 taga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimi bilan integratsiyalashuv asosida yurtimizda kuchli zilzilalar haqida erta ogohlantirish milliy tizimi samaradorligini oshirish muhimligi doirasida ham ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, davra suhbatida markaz kameral-tahlil partiyasi boshlig‘i Qodirjon Qo‘chqorov ham hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha o‘z takliflari bilan chiqish qildi.

**Abdumajid JO‘RAYEV.**

**Keyingi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida. muhim investitsiyaviy loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani yangi konlarni o‘zlashtirish, gidrometallurgiya zavodlarini ishga tushirish, amaldagi korxonalarni modernizatsiyalash orqali ma’danni qayta ishlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda.**

# INVESTITSIYA DASTURI – AMALDA!

Shu ma’noda Qizilqum kengliklarini haqiqiy qurilish-bunyodkorlik maydoniga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya dasturi doirasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari Markaziy kon boshqarmasiga ikkinchi hayot bag‘ishlayapti.

– Joriy yilda “NKMK” AJning Investitsiya dasturida rejalashtirilgan 9 ta loyihaning katta qismi bizning kon boshqarmasi hissasiga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda 6 ta investitsion loyiha doirasidagi ishlar jadal sur’atlarda olib borilmoqda. 2 va 7-gidrometallurgiya zavodlaridan chiqayotgan chiqindilarni bitta joyda saqlash uchun “2-GMZ chiqindi omborini kengaytirish va rekonstruksiya qilish” hamda “7-gidrometallurgiya zavodi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish” loyihalari bo‘yicha ishlar rejaga muvofiq davom ettirilmoqda, – deydi kon boshqarmasi direktorining kapital qurilish bo‘yicha o‘rinbosari Faxritdin Umarov.

Investitsiyaviy loyihalar bo‘yicha amaldagi korxonalarda eskirgan texnologik uskuna va mexanizmlarni energiyatejamkoriga almashtirish, yuqori texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega konchilik texnikalari va avtotransport vositalarini olib kelish ham ko‘zda tutilgan. “Muruntov konining 5-navbatini o‘zlashtirishning 1-bosqichi”, “Balpantovva Tomdibuloq konlari negizida qazib olish karyerlarini qurish”, “Muruntov konining 5-navbati 1-bosqich loyihasi doirasida sanoat obyektlarini elektr energiyasi bilan ta’minlash”, “Amudaryo-Zarafshon suv quvurining 3-liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish” loyihalarini foydalanishga topshirish mo‘ljallangan. Mazkur loyihalar to‘liq quvvatda foydalanishga topshirilgach, 2 mingtadan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratish, “Balpantov” va “Tomdibuloq” konlaridan yiliga 3 million tonna , “Muruntov” konidan 47 million tonna ma’dan qazib olish, sanoat obyektlarini yiliga 34,5 million kubometr suv bilan ta’minlash imkoniyati tug‘iladi.

**Aziza IRISOVA.**

■ Qonun va amaliyot

# URAN QIDIRUV ISHLARIDA YANGI BOSQICH

**O‘zbekiston Respublikasining “Er qa’ri to‘g‘risida”gi qonuniga so‘nggi yillarda qator o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu o‘zgartirishlar geologiya-qidiruv ishlari, ekologik xavfsizlik va uran qazib olish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatdagi eng yirik davlat korxonalaridan biri – “Navoiyuran” DK tarkibidagi “Uran va noyob metallar geologiyasi” ilmiy-ishlab chiqarish markazi tomonidan olib borilayotgan izlanishlar yangi qonunchilik talablariga moslashtirilib borilmoqda.**



Xo‘sh, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va uning faoliyatimizga qanday ta’siri bor? So‘nggi yillardagi huquqiy yangiliklar geologik tadqiqotlar va qazib olish jarayonlarini yanada aniqroq tartibga solishga qaratilgan. Xususan, yer qa’ridan foydalanish tartibi takomillashtirildi (uran qidiruv ishlari uchun ekologik monitoring majburiy holga keltirildi), litsenziyalash jarayoni murakkablashtirildi (uran va boshqa strategik minerallarni izlash uchun qo‘shimcha ekspertizalar talab qilinmoqda), ekologik xavfsizlik choralari kuchaytirildi (radiatsion monitoring va chiqindilarni boshqarish qat’iy belgilangan), davlat nazorati oshirildi (uran konlari va geologik izlanishlar bo‘yicha muvofiqlashtirish tizimi kuchaytirildi), resurslardan oqilona foydalanish boshlandi (uran qazib olish va geologik tadqiqotlarni xalqaro standartlarga muvofiq olib borish tartibi ishlab chiqildi).

Ushbu qonun bilan "Navoiyuran" DK oldiga ham bir qator vazifalar qo‘yildi hamda ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun chora-tadbirlar belgilab olingan. Jumladan, "Navoiyuran" DKda geologiya-qidiruv va uran qazib olish jarayonlarini xalqaro tajriba asosida rivojlantirish hamda konchilik faoliyatini samarali tashkil etish va ekologik xavfsizlik talablariga to‘liq javob berish bo‘yicha qator vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

Xususan, uran resurslarini kengaytirish maqsadida 2025-yilda uran zaxiralarini va resurslarini oshirish, buning uchun istiqbolli hududlar va ma’danli maydonlarda burg‘ilash ishlarini jadallashtirish, burg‘ilash va qazib olish jarayonlarida ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qo‘llash, atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, ya’ni ekologik xavfsizlik bo‘yicha xalqaro talablarga mos keluvchi monitoring tizimini takomillashtirish, yetakchi uran qazib oluvchi davlatlar bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish va rivojlantirish asosiy vazifalar hisoblanadi.

"Uran va noyob metallar geologiyasi" ilmiy-ishlab chiqarish markazi tomonidan joriy yilda quyidagi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi va yaxshi natijalarga erishish kutilmoqda.

Geologiya-qidiruv ishlari natijasida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yangi istiqbolli maydonlarni aniqlash orqali yangi uran zaxiralari va bashorat resurslarini o‘stirish, yangi texnologiyalarni qo‘llash bilan burg‘ilash samaradorligini oshirish hamda tannarx xarajatlarini kamaytirish, uran va noyob metallar minerallashuvini aniq baholash uchun ilg‘or laboratoriya tadqiqotlari va tahlil ishlarini olib borish, uran qazib olish jarayonining har bir bosqichini ekologik va iqtisodiy jihatdan xalqaro talablar asosida hamda xalqaro standartlarga mos baholash tizimi joriy qilinadi.

Yangi qonunchilik va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi samarasida “Navoiyuran" DKga xalqaro maydonda yuqori reytinglarni qo‘lga kiritish imkoniyati yaratiladi. Xususan, jahon uran bozorida ishonchli yetkazib beruvchi sifatida e’tirof etilish, xalqaro konchilik va ekologik standartlarga mos keluvchi ishlab chiqarish jarayonini shakllantirish, uran qazib olish samaradorligini oshirish va energiya xavfsizligi borasida yetakchi davlatlar qatoriga kirishga erishiladi.

Yangi qonunchilik talablariga muvofiq, "Navoiyuran" DK tomonidan olib borilayotgan geologik tadqiqotlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Ushbu yangilangan tizim uran qazib olish samaradorligini oshirish bilan birga, ekologik xavfsizlik talablariga ham to‘liq mos keladi. Natijada, "Navoiyuran" DK xalqaro uran qazib oluvchi yirik korxonalar qatoriga kirishi va global reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashi kutilmoqda.

**Zafar RAHIMOV, “Navoiyuran” DK “Uran va noyob metallar geologiyasi” ilmiy ishlab chiqarish markazi direktori.**

■ Культура...

**Это название нового спектакля, премьера которого состоялась недавно на сцене Дворца культуры «Фархад» Навоийского горно-металлургического комбината, по сценарию руководителя самодеятельного театра шоу и миниатюр «Эксклюзив» Камилы Каршиевой. Хотя то же самое можно сказать о ней самой и её творческом пути.**





# «ДЕРЕВО ПУСКАЕТ КОРНИ В ОДНОМ МЕСТЕ

## или волшебное путешествие »

После окончания Ташкентского государственного института культуры по специальности «Руководитель народного театра», она вернулась в родной город Навои и стала работать в ДК «Фархад». В 2003 году создала юмористическую театральную студию «Бўйдоқлар» («Холостяки»), которая очень скоро приобрела популярность благодаря весёлым шоу-программам, собиравшим полные залы, и ярким выступлениям на праздничных концертах.

Бесценным опытом для К.Каршиевой стала затем работа в республиканском театре сатиры на одной сцене с такими знаменитыми актёрами как Эргаш и Роза Каримовы, Хайрулло Саъдуллаев, Ортик Юсупов, Хусан Шарипов. Кроме того, с 1998 года она является постоянной актрисой популярного в Узбекистане юмористического коллектива «Қаҳ-қаҳа», и её бесподобные женские роли может увидеть любой желающий на телеканалах страны. Кстати, совсем скоро на телеэкраны выйдет новая программа этих весельчаков - «Қаҳқаҳанинг ўзидан, томошанинг зўридан», полная смеха, остроумных шуток, забавных историй и позитивных эмоций, и, конечно же, замечательной игры талантливых комиков, среди которых Камила Каршиева.

- Я считаю, что творческий человек должен постоянно совершенствоваться, - говорит Камила Болтаевна. - Поэтому с удовольствием выступаю с «Қаҳ-қаҳа», и во время поездок на съёмки узнаю много интересного и полезного, расширяется кругозор, появляются новые идеи для дальнейшей работы театра “Эксклюзив”. Он создан в 2012 году, и за эти почти 13 лет мною поставлены более 15 полноценных спектаклей и множество театральных миниатюр. За сценарные основы взяты произведения как мировых так и отечественных авторов и драматургов. К примеру, спектакль «Олтин жўжа» («Золотой цыплёнок») поставлен по пьесе-сказке известного поэта и драматурга Владимира Орлова. Автором комедии «Два вора» является сербский писатель и драматург Бранислав Нушич. Среди отечественных авторов предпочтение отдаю Эркину Хушвактову: его произведения комедийные, и в то же время поучительные, и за эти годы мы инсценировали его романы «Чимилдиқ», «Чўп қўғирчоқ», «Қирмизи олма» и другие. Помимо этого, ежегодно пишу сценарии и ставлю на большой сцене ДК «Фархад» детские сказки для новогодних представлений, это уже стало традицией…

За последние два года творческий арсенал Камилы Каршиевой пополнился новыми постановками, инициатором которых стал генеральный директор АО «НГМК» К.Санакулов. Одна из них по книге в жанре исторической прозы «Империи шёлка» Акбара Хакимова, академика Академии наук Республики Узбекистан, одного из ведущих учёных-искусствоведов страны.

- Она написана на русском языке, - рассказала Камила Болтаевна, - и мне пришлось прочитать её несколько раз, чтобы постичь смысл. Книга погружает читателя в историческую атмосферу Великого Шёлкового пути, наполненную противостояниями империй раннего Средневековья, где ключевую роль играет удивительная история возникновения шёлка и его значение в судьбах цивилизаций Востока и Запада. И мне предстояло поставить на её основе спектакль. Работа была долгой, интересной, почти полтора года длилась подготовка, и, в итоге, надюсь, получилась достойной. Сшили костюмы того времени, не только согдийские и тюркские, но и китайские, поскольку есть в книге и в спектакле сюжеты про Китай, где собственно, и зародился шёлк. Всего были задействованы 13 актёров. Но изюминка постановки была в том, что вместо декораций на сцене использовали большой экран. Думаю, в республике такого пока никто не делал – совмещение видео-декораций и работы на сцене.

На премьеру спектакля мы пригласили автора книги “Империи шёлка» Акбара Хакимова. Встреча с ним тоже была интересной. Когда мы с коллегой приехали к нему в Ташкент, он выделил нам 5 минут для разговора, поскольку человек очень занятой. И за это отведённое время мы выдали ему информацию о том, что самодеятельная театральная студия ДК «Фархад» города Навои поставила по его книге спектакль. Он был очень удивлён, поражён, заинтересовался подробностями и 5-минутная беседа продлилась 2 часа...

На премьере спектакля «Империи шёлка» Акбар Абдуллаевич присутствовал лично, как обещал. Среди зрителей были также школьники, студенты, преподаватели, жители города Навои – К.Каршиевой было интересно узнать мнение всех. Спектакль прошёл на одном дыхании. И самое приятное, что Акбар Хакимов дал высокую оценку постановке, поблагодарил за проделанную работу и оказанное внимание к его книге. После премьеры состоялись гастроли спектакля по городам комбината - были в Учкудуке, Зарафшане, Зафарабаде, Зармитане, Нурабаде. Был сеанс и для навоийцев. И спектакль, и идея постановки зрители восприняли восторженно.

- Недавно нам удалось воплотить ещё одну творческую идею – о герое нашего времени, о работниках нашего золотодобывающего комбината, которые круглый год трудятся на просторах пустыни в карьерах, шахтах, на заводах, - поделилась Камила Болтаевна. - Причём, не просто сценический спектакль, а с музыкальными и хореографическими номерами. Это тоже стало нашей фишкой. Название спектакля «Дарахт бир жойда кукаради ёки сехирли саёхат» («Дерево пускает корни в одном месте или волшебное путешествие»). Сценарий основан на том, что молодой выпускник горного вуза получает направление на работу в Учкудук. Но он всячески сопротивляется, хочет чистую работу с большой зарплатой. Однако, по настоянию родителей парень отправляется в сердце пустыни Кызылкум - в город горняков Учкудук. Дальше действие переносится на экран, где зрители вместе с ним едут по пустынной трассе, проезжают посёлки Канимех и Зафарабад, город Зарафшан с известным на весь мир золотоносным карьером «Мурунтау», гидрометаллургический завод №2, где выпускают золотые слитки, и другие производственные площадки комбината. Основные действия происходят в Учкудуке. На экране демонстрируется работа цехов, большегрузных самосвалов и другой горной техники. А на сцене всё это сопровождается вокальными и танцевальными номерами. Причём, начинается, к примеру, песня или танец на экране, а продолжаются в реальном времени на сцене. Очень зрелищно получилось...



Премьера спектакля состоялась в конце 2024 года, отзывы зрителей и работников НГМК были восторженные, поэтому весной планируется повторить постановку. Стоит отметить, что видеосъёмку осуществил оператор ДК «Фархад» Равшан Толибов, монтаж делали совместно с Камилой Каршиевой. Актёрами были работники массового отдела ДК – Фахриддин Хожиев, Тимур Болтаев, Юнус Эргашов, Сайёра Азимова и другие. Песни исполнили солисты Самандар Хамидов, Серижан Жанахметов и Муслима Нуримбетова. А танцевальные номера предоставили все хореографические коллективы «Фархада».

Важно, что в настоящее время Камила Болтаевна работает над идеей о продолжении этого спектакля. Ведь трудовой путь практически каждого руководителя комбината начинался с простого рабочего.

Несмотря на такую напряжённую творческую работу, Камила Болтаевна успевает заниматься с участниками театра «Эксклюзив». В этом ей помогает молодой выпускник Ташкентского театрального института Тимур Болтаев. На сегодняшний день в «Эксклюзиве» 30 участников, в основном, школьники, среди которых немало талантливых ребят.

- Возможно, они в будущем не выберут актёрскую профессиию, но занятия в театре позволят им творчески мыслить, правильно выражать и контролировать свои эмоции, не бояться публичных выступлений, - говорит Камила Каршиева. – У меня много учеников, которые стали профессиональными актёрами, успешными ведущими и режиссёрами на телеканалах Узбекистана, блогерами. Например, Алауддин Болтаев пишет сценарии для популярной комик-группы «Million», Шерзод Раимов работает режиссёром на канале «Zo’r TV», Жасур Достонов – ведущий программы «Камеди-шоу» на канале «Mening Yurtim 5» («MY5»). Но даже те, которые работают в других сферах деятельности, всегда благодарят за то, что школа актёрства им тоже пригодилась в жизни.

Волшебное путешествие по творческому пути у Камилы Каршиевой продолжается. И ведь действительно, как и в названии спектакля, она пустила корни на Кызылкумской земле, и здесь с каждым годом расцветает её талант. Нет сомнений, что впереди нас ждёт ещё немало шедевров на сцене от этого талантливого режиссёра, сценариста и актрисы.

## Onangizdan xabar olingiz



*Yuragimda ko‘pdir armonim,*
*Kim o‘zgartar falak farmonin?!*
*Bilsam hamki dunyo yolg‘onin,*
*Holin so‘rab har kun bormadim,*
*Men onamni asray olmadim.*

*Bahor, kuzda, yozda ham qishda,*
*Ertalabdan kechgacha ishda,*
*Goho kirib tursa ham tushga,*
*Holin so‘rab sira bormadim,*
*Men onamni asray olmadim.*

*Yuragimda unsiz armon bor,*
*Yo‘llarimga bo‘lgan qancha zor,*
*Nega undan so‘ramadim hol.*
*Bilib turib dunyo yolg‘onin,*
*Men onamni asray olmadim.*

*Hayot go‘zal, ko‘rsatib jamol,*
*Yillar o‘tib, topsam ham kamol,*
*Yuragimni o‘rtar bir savol,*
*Savol emas, dardu armonim:*
*Men onamni asray olmadim!*

*... Bir kun menday qolmasdan g‘amda,*
*Xush odatni qilmasdan kanda,*
*Har faslda, har kun, har onda,*
*Dunyodagi boylik, boringiz,*
*Onangizdan xabar olingiz!*
*Onangizdan xabar olingiz!*

**Aqchagul TULEGENOVA,**
**“NKMK tarixi” muzeyi mudirasi.**

■ ... и спорт

# КРАСИВЫЕ, ЛОВКИЕ, СИЛЬНЫЕ

**В нашей стране немало ценителей и любителей баскетбола. Это завораживающая игра атлетических, ловких, выносливых, быстрых и упорных. А баскетбол в исполнении прекрасного пола - это талант, харизма, женственность и красота.**

Женский баскетбольный клуб физкультурно-спортивного комплекса «Согдиана» (ЖБК ФСК «Согдиана») Навоийского горно-металлургического комбината действует на протяжении многих лет, входит в Высшую лигу Узбекистана. О его истории и нынешних результатах рассказал старший тренер клуба, мастер спорта Шухрат Хамидович Сафаров.

**- Когда в Навои появилась женская баскетбольная команда?**

- История нашего женского баскетбольного клуба начинается с 2000 года. Сначала он назывался «Прогресс» и базировался в городе Зарафшане. Через год его перевели в областной центр - город Навои, и переименовали в клуб «Ника». В команде было 15 профессиональных спортсменок, которые на протяжении 8 лет показывали хорошие результаты, выступая в Высшей лиге Узбекистана. В 2009 году клуб переименовали в «Согдиана».

**- Шухрат Хамидович, что представляет собой ЖБК ФСК «Согдиана» на сегодняшний день?**

- В настоящее время у нас 4 команды разных возрастных категорий – от 12 до 18 лет и старше. Капитаном основной команды, которая играет в Высшей лиге, является Евгения Гринько. Ежегодно около 10 спортсменок из нашего клуба выполняют норматив кандидата в мастера спорта, 5-6 игроков попадают в национальную сборную страны. К примеру, в 2025 году своё право на членство в сборной Узбекистана подтвердили 7 наших девушек – это второй тренер ЖБК «Согдиана», неоднократная чемпионка республики Анастасия Князева, игроки Шахноза Худойкулова, Азиза Анисимова, Дилфуза Максумова, Мухлиса Хамраева, Амалия Гадаева, Юлия Стрельникова. Они достойно выступают за честь нашей страны на соревнованиях международного уровня. И, конечно же, являются хорошими наставниками для молодых баскетболисток.



**- Каких успехов добились в прошлом году?**

- В 2024 году команда U-14 заняла первое место на Кубке Узбекистана, команда U-12 завоевала первое место на Чемпионате Узбекистана - это говорит о том, что подрастает достойная и перспективная смена баскетболисток. А завершили год третьим местом на чемпионате среди женских команд Высшей лиги. Надеемся, 2025 год также будет удачным, потому что у нас есть все условия для успешной игры – поддержка руководства, хороший зал, форма, инвентарь, а главное – мы всегда нацелены только на победу.

**- С какого возраста новичков принимаете в клуб?**

- Баскетбол очень красивая и увлекательная игра, как для игроков, так и для болельщиков, но, к сожалению, он не так популярен как, скажем, футбол. Мы принимаем девочек возраста 10 лет и младше. Остаются, к сожалению, не все, поэтому набор идёт практически круглый год. Для популяризации этого вида спорта мы прилагаем все усилия. Как тренер, как исполнительный директор Навоийского областного отделения Федерации баскетбола Узбекистана, я постоянно посещают школы города, рассказываю детям о баскетболе, приглашаю их прийти и попробовать. Совместно с учителями физкультуры организовываем матчи среди классов, заодно ищу талантливых ребят. Планируем проводить игры среди школьных команд.

**- Шухрат Хамидович, а сколько ваших воспитанниц выбрали спорт своей профессией?**

- Каждый год несколько девушек из нашего клуба поступают в вузы по спортивному направлению. Причём, благодаря победам на многих республиканских соревнованиях, они на льготной основе поступают на бюджет. В 2024-м учебном году в Навоийском государственном университете на факультете физического воспитания и спорта открыли отделение баскетбола, где тоже учатся наши спортсменки. Мы гордимся этими достижениями и, надеемся, что сегодняшние студентки в будущем продолжат наше дело.

**- Есть ли трудности в работе с женскими спортивными командами?**

- Трудности те же, что у всех - девушки выходят замуж, уходят в декрет, уезжают учиться. У меня сейчас 8 игроков в декрете. Но некоторые, бывает, приходят с коляской, оставляют её в сторонке и тренируются. Тот, кто искренне любит спорт, никогда не останавливается. А пока их заменяют перспективные баскетболистки из нашей молодёжи.

**- Какие главные правила для девушек в команде?**

- Прежде всего, это дисциплина, полная самоотдача, отношение к работе, друг к другу. В баскетболе важны выносливость, умение работать в команде и быстро принимать решения…

Надо отметить, что в этой спортивной игре ценятся индивидуальный стиль и кооперация в решении тактических задач команды. Постоянная смена характера игровых действий, высокая эмоциональность воспитывают интеллектуальных, здоровых, физически сильных людей, устойчивых к стрессу.

А если взглянуть на баскетболисток ЖБК «Согдиана», то понимаешь, что это ещё и весёлые, красивые, ловкие девчонки, которые через определённый промежуток времени вполне могут стать баскетбольными звёздами.

**Насиба ШАМУРАТОВА.**
**Фото Виктора ЯКОВЛЕВА.**

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

**Tahririyat manzili:** 210100. Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy, “NKMK” AJ boshqarmasi
**Telefonlar:** Muharrir: 79 227-74-64. Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg‘armasi” DM bo‘linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo‘yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin.
**Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Dildora KARIMOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog‘oz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 115. 2025-yil 7-mart 11:00 da chop etishga topshirildi.